

– Р. 722–725.

8.Страхов П. В. Понятие и сущность диверсификации производства // Экономинфо. 2024. № 8. – С. 35.

SHAROF RASHIDOV ASARLARI ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI MA’NAVİY-AXLOQIY JİHATDAN TARBIYALASHNING FUNKSİONAL MODELİ

Qilichova Marxabo Xudayqulovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti,

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

kilichovam@gmail.com

Annotaysiya: Ushbu maqolada Sharof Rashidov asarlari asosida bo‘lajak pedagoglarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari, Sharof Rashidov asarlari asosida bo‘lajak pedagoglarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning funksional modeli, bo‘lajak pedagoglarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning innovatsion usullari tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: Sharof Rashidov, bo‘lajak pedagoglar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, innovatsion usullar, pedagogik imkoniyatlar.

ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ РАБОТ ШАРАФА РАШИДОВА

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические возможности духовно-нравственного воспитания будущих педагогов на основе работ Шарафа Рашидова, функциональная модель духовно-нравственного воспитания будущих педагогов на основе работ Шарафа Рашидова, инновационные методы духовно-нравственного воспитания будущих педагогов.

Ключевые слова: Шараф Рашидов, будущие педагоги, духовно-нравственное воспитание, инновационные методы, педагогические возможности.

A FUNCTIONAL MODEL OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION FOR FUTURE TEACHERS BASED ON THE WORKS OF SHARAF RASHIDOV

Abstract: The article examines pedagogical approaches to spiritual and moral education for future teachers based on works by Sharaf Rashidov. It describes a functional model for such education and innovative methods for its implementation.

Key words: Sharaf Rashids, future teacher, spiritual and moral development, innovative methods, educational opportunities.

Sharof Rashidov asarlari asosida bo‘lajak pedagoglarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash mazmunini takomillashtirishga erishishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda, ilg‘or ta’lim metodlarini joriy etish, tashabbus va xatti-harakatlarni rag‘batlantirish, turli pedagogik loyihalarini ishlab chiqish va tahlil qilish, pedagogik imkoniyat va zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, ijtimoiy amaliyot va ta’lim ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda natijalarning samaradorligini ta’minlash uchun ijtimoiy faoliyatni ilmiy asoslarda tashkil etish zarur sanaladi. Mazkur jarayonni takomillashtirishda bo‘lajak o‘qituvchilarning kelajakda maktabda tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonlari samaradorligini oshirishiga e’tibor berish, ularning kasbiy va

shaxsiy sifatlarini shakllantirish, talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish hamda mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini oldindan modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda Sharof Rashidov asarlaridan foydalanish ijtimoiy va pedagogik ahamiyatga ega masala sifatida talqin qilinmoqda. Birinchidan, bugungi o'quvchilar kompyuter, mobil aloqa vositasi kabi texnik imkoniyatlardan faol foydalanayotgani ma'lum; ikkinchidan, bu texnik vositalarda o'quvchilarning shakllanish bosqichida bo'lgan ongini chalg'ituvchi, hatto mayib qiluvchi axborotlarning ko'pligi sir emas; uchinchidan, jamiyat yosh avlodning bilimli, dono, aqli va maqsad-muddaoli bo'lib voyaga yetishi ehtiyojini qo'yemoqda Shu jihatdan, bizning yondashuvimizga ko'ra, talaba shaxsi ma'naviy-axloqiy tarbiyasining poydevorini qo'yish va keyingi ta'llim bosqichlarida uni rivojlantirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ijtimoiy faoliik keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning negizini hayotiy bilim, dunyoqarash va axloqqa ega bo'lish hamda faoliyat va hayotga tayyorlanish tashkil qiladi.

Bizning xulosamizga ko'ra, ta'llimga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jamiyatimiz talablari va ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda bayon qilingan nazariy fikr-mulohazalardan kelib chiqib, talaba shaxsi ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish mohiyatini shunday belgilash mumkin: talaba shaxsida ma'naviy-axloqiy tarbiya tushunchasi, ongi, fikri va axloqini shakllantirish ijtimoiy faoliik asosidir. Unga ko'ra, talabalarini davlat ta'llim standartlariga muvofiq ijtimoiy hayot to'g'risida talab darajasida tushunchaga ega bo'lishi, ongi ijtimoiylashishi, mustaqil fikrlay olishi va jamiyat talablariga mos axloq egasi bo'lishi kerak. Bunday yondashuv milliy va jahon pedagogikasi talablariga mos keladi.

Albatta, bu ish bugungi uzliksiz ta'llim jarayonida muayyan darajada amalga oshirilmoqda. Ammo bizning maqsadimiz bu ishni ilmiy va pedagogik asoslangan tarzda amalga oshirishdir.

Bizningcha, oliy pedagogik ta'llim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini Sharof Rashidov asarlari yordamida shakllantirishni maqsadli va oqilona tashkil qilishda modellashtirishga alohida yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda quyidagi asosiy funksiyalarini belgilash mumkin:

- birinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda Sharof Rashidov asarlaridan foydalanish va axloqini shakllantirish asoslari bilan qurollantirish;
- ikkinchidan, ularni mazkur ishning metodologiyasi, metodlari va texnologiyalari bilan tanishtirish;
- uchinchidan, bo'lajak o'qituvchilarning yetarli kompetensiyalarini shakllantirish tizimini ishlab chiqish;
- to'rtinchidan, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik ijodkorlik va mustaqil faoliyat yuritish mahoratlarini hosil qilish;
- beshinchidan, bu ishni kutilgan darajada amalga oshirish uchun turli tadbirlar, maxsus kurslar, klublar, to'garaklar va mustaqil ta'llim kabi shakllardan oqilona foydalanish.

Mazkur ishlarni amalga oshirish uchun Sharof Rashidov asarlari assosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning funksional modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki Sharof Rashidov asarlari assosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash mazmuniga oid milliy pedagogik tajribalarni kuzatish shunday xulosaga olib keladiki, har bir mamlakat real imkoniyatlardan kelib chiqib model tanlagani maqsadga muvoviq bo'ladi.

Zero, bizning jamiyatimizda birday amaliyot sinovidan o'tgan pedagogik tajribalarni hisobga olish imkoniyati bor. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'llim jarayonida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning **milliy modelini** asoslash mumkin. Bizningcha, bunda

quyidagilar bo'yicha bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- a) talabalarining individual layoqati, xohish-istagi va qiziqishlarini aniqlab olish;
- b) ta'lim va tarbiya jarayonini hayot va ijtimoiy faoliyat bilan uyg'unlikda tashkil etish;
- v) talabalar bilan muntazam individual va umumiylar tarzda ish olib borish;
- g) amaliy mashg'ulotlardagi tayyorgarlikni va faolligini kuchaytirish;
- d) ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari (ota-onalar, jamoatchilik va mutaxassislar) ko'pligidan unumli foydalanish;
- y) talabalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasining shakllanish jarayonini nazorat qilish va monitoringini qilib borish va h.k.

Modellashtirishda bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish jarayonlarini tashkil etishga yondashuvni tatbiq etish hamda o'rganiladigan tushunchalarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash zaruriyatini inobatga olgan holda vazifalar belgilanishi zarur. Shuningdek, ularning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni o'zini-o'zi rivojlantirishga intilishini ta'minlash, amaliyotni o'rganish asosida ma'naviy-axloqiy yo'nalishda yuqori darajadagi tayyorgarlik va o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmasiga ega bo'lishi, egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kelajakda amaliyotga tatbiq etish zaruriyatini anglab yetishi, o'z faoliyatini takomillashtirishga yuqori darajada intilish hissiyotlarining vujudga kelishi, ma'naviy-axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarini shakllantirishi va rivojlantirishi uchun yetarli va zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi zarur.


Bunday tizimni takomillashtirish jaryonlari modeli talabalarining ma'naviy-axloqiy kompetentlilagini rivojlantirish jarayonlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi, belgilangan maqsad va vazifalarning mazmun va mohiyatini ifodalovchi hamda ko'zlangan natijalarga erishishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq bo'lgan, bir-birini o'zaro to'ldiruvchi komponentlardan iborat bo'lgan tizimni tasvirlashi zarur.

Jahon bozorida texnologik jihatdan ilg'or bilim talab qiladigan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan davlatlarning zamонави siyosati bugungi kun talabasining egallashi lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy kompetensiyalariga yangi vazifalar qo'ygan holda o'quv jarayonini qayta ko'rib chiqishga zamin yaratmoqda.

Ta'limni modernizasiyalashning asosiy maqsadi mehnat bozorida raqobatbardosh, jahon standartlari asosida samarali ishlashga qodir, kasbiy o'sishga tayyor, har kimning tegishli ma'lumot olish ehtiyojlarini qondiradigan malakali mutaxassisni tayyorlashdan iborat. Shunday qilib, ta'lim mazmunida bo'layotgan o'zgarishlar, to'plash funksiyasidan (talabaning ma'lum bir bilim darajasini shakllantirish uchun) zamонави ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda moslasha oladigan va o'qishdan keyin rivojlanishini davom ettirishga imkon beradigan hamda uzluksiz ta'lim nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladigan shaxsni rivojlantirish funksiyasi yo'lga qo'yilmoqda.

Bugungi kunga kelib shakl va mazmun jihatidan xilma-xil, ammo bir maqsadga – ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga va kelajakda ijtimoiy yetuk komil shaxs manzarasini yaratishga qaratilgan tarbiya modelini amalga oshirish bo'yicha katta tajriba to'plangan.

Talabalarining auditoriya va auditoriyadan tashqari, oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarning uzviyligini integratsion mexanizmlar asosida bog'lanishni amalga oshirish jarayonini tahlil qilib, biz ijodiy tadqiqotchilik, ma'naviy-axloqiy tarbiya ko'nikmalari asosida Sharof Rashidov asarlarining yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashdagi ta'sirini o'rganib, "Sharof Rashidov asarlari asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning funksional modeli"ni ishlab chiqdik. (1-rasm)



1-rasm. Sharof Rashidov asarlari asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash modeli

Sharof Rashidov asarlari asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning funksional modeli, talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida ma'naviy-axloqiy sifatlar va shaxsiy fazilatlar o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatadi. Ushbu model,

ta’lim berishga bo‘lgan yondashuvlar, tamoyillar, o‘quv-texnik ta’minot hamda tarbiya mazmunini o‘z ichiga oladi. Talabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, kasbiy faoliyatga ijobil munosabatni qaror toptirishning ustuvorligi asosida, ularning intellektual, psixologik, fiziologik va ma’naviy-axloqiy yetukligini ta’minlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon sifatida amalga oshiriladi.

Mazkur jarayonning samarali tashkil etilishi, uning tashkiliy, metodik va amaliy jihatdan to‘g‘ri va oqilona uyuştirilishiga bog‘liqdir. Shunday qilib, talabalarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi va bu jarayonda pedagoglarning roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda mutaxassislarning ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lishi ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Kuchli raqobatga asoslangan bozor munosabatlari ham mutaxassisning unga nisbatan bardoshli bo‘lishini taqozo etadi. Ma’naviy-axloqiy sifatlariga ega bo‘lgan mutaxassisgina kuchli raqobatga bardosh bera oladi. Shu sababli tadqiqot davrida aqliy va jismoni harakatlarini amalga oshiruvchi, tarbiyaviy muammolarga tezda yechim topa oladigan shaxsiy va ijtimoiy hayotida munosib o‘rin topa oladigan yakuniy natijada ma’lum sohadagi ongli ravishda jamiyat va shaxs farovonligi yo‘lida mehnat faoliyatiga qo‘shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxs tushuniladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Kilichova M.Kh. In the case of a person concerned with eternity - Sharof Rashidov // Web of scientist International scientist research journal. Dec. 2022. - P.1128-1132. (13.00.00 №3)
2. Киличова М.Х. Роль романа Шарафа Рашидова «Победители» в духовно нравственном воспитании молодёжи // European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE). Nov – 2024. - P.361-370. (13.00.00 №23)
3. Qilichova M.X. Sharof Rashidov asarlari orqali yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning innovatsion pedagogik texnologiyalari // Muallim xem uzliksim biliqdenidiroy. Ilmiy-metodikaliq jurnal. № 6. Nukus, 2023, 576-581-betlar. (13.00.00. № 20)
4. Киличова М.Х. Использование произведений Шарафа Рашидова в духовно-нравственном воспитании молодежи // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. № 11. Namangan, 2024, 1107-1110-betlar. (13.00.00. № 30)

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В НАУКЕ, ОБРАЗОВАНИИ И ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Ганиева Диана Рустамовна

Студентка 2-курса направления «Экономика», филиала КФУ в городе Джизаке
dianaganiyeva49@gmail.com

Аннотация: Статья посвящена исследованию влияния цифровых технологий и искусственного интеллекта (ИИ) на ключевые сферы человеческой деятельности: науку, образование и промышленность. Рассматриваются примеры применения ИИ, его преимущества и вызовы, а также перспективы дальнейшего развития данных технологий.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровые технологии, наука, образование, промышленность, автоматизация, большие данные, персонализированное обучение, индустрия 4.0, интеллектуальные системы.